

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

NAVOIYNING TASAVVUFIIY QARASHLARI PROFESSOR ABDUSALOM ABDUQODIROV ILMIY TALQINIDA

Baxtiyor Fayzulloyev

akademik Bobojon G‘afurov nomidagi DTM
Xo‘jand davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari
nomzodi (Tojikiston)

E-mail: b.fayz.1961@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada navoiyshunos hamda tasavvufshunos olim professor Abdusalom Abduqodirovning Amir Alisher Navoiy va tasavvuf mavzusiga doir kuzatishlariga e‘tibor qaratildi. Shu bilan birga, tasavvufga doir g‘oyalarning Navoiy asarlaridagi talqiniga doir olimning nuqtayi nazariga ham e‘tibor berildi. Shuningdek, fors-tojik tilidagi asarlarning mualliflari: Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiylarning dostonlari professor Abdusalom Abduqodirov tomonidan Navoiy dostonlari bilan qiyoslanib, ularning mushtarak (o‘xshash) hamda farqli tomonlari ko‘rsatib berilgan muhim xulosalariga munosabat bildirildi. Bundan tashqari, Sharq mumtoz adabiyotda fors-tojik tilida yaratilgan tasavvufiy mazmunga ega bo‘lgan pandnomalarning A. Abduqodirov tomonidan o‘zbek tiliga qilingan erkin tarjima va zamonaviy tabdillariga doir fikr hamda mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: an‘ana, ta‘sir, o‘ziga xoslik, mahorat, tasavvuf, tarjima, adabiy aloqa, tatabbu, talqin, tabdil, tahlil.

Аннотация: Статья посвящена наблюдениям Амира Алишера Навои и суфизму профессора Абдусалама Абдукадырова, навоийского ученого и мистика. При этом было обращено внимание на точку зрения учёного на трактовку идей суфизма в трудах Навои. Также профессор Абдусалам Абдукадыров сравнил эпосы авторов уникальных произведений, созданных на персидско-таджикском языке: Низами Гянджеви, Хусрава Деглави, Абдурахмана Джамия с эпосами Навои, и показал их общие (сходные) и разные моменты. Кроме того, освещены вольный перевод А. Абдукадырова и современные адаптации пандномов мистического содержания, созданных на персидско-таджикском языке в классической восточной литературе, и их современные обработки.

Ключевые слова: традиция, влияние, своеобразие, талант, перевод, суфизм, литературное отношение, татабу, интерпретация, преоб-разование, анализ.

Annotation: The article focused on the observations of Amir Alisher Navoi and Sufism by Professor Abdusalom Abdukadirov, a Navoi scholar and mystic. At the same time, attention was paid to the scientist's point of view on the interpretation of Sufism ideas in Navoi's works. Also, Professor Abdusalom Abdukadirov compared the epics of the authors of unique works created in the Persian-Tajik language: Nizamiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahman Jamiy with the epics of Navoi, and showed their common (similar) and different points. In addition, A. Abdukadirov's free translation and modern adaptations of pandnoms with mystical content created in the Persian-Tajik language in Eastern classic literature and their modern adaptations are highlighted.

Key words: tradition, influence, originality, talent, translation, literary sufism, attitude, tatabbu, interpretation, transformation, analysis.

Azaldan ilm hamda ma‘rifat o‘chog‘i bo‘lgan Xo‘jand shahrida o‘tgan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbek adabiyotshunosligi maktabi amal qilib

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

kelmoqda. Ushbu ilm dargohida kamolga yetib, o‘zbek va tojik adabiyotshunosligi rivojiga kamtarona hissa qo‘shgan ustoz olimlardan biri taniqli navoiyshunos, tasavvufshunos, o‘zbek va tojik adabiy aloqalari rivojiga munosib hissa qo‘shgan o‘zbek hamda tojik mumtoz adabiyotlari tadqiqotchisi va targ‘ibotchisi, filologiya fanlari doktori, professor Abdusalom Abduqodirovni zukko adabiyotshunos olim sifatida Tojikistonda, shu bilan birga chet hamda qo‘shni davlatlarda ham yaxshi bilishadi.

Milliy mustaqillik sharofati bilan tarixga va uzoq asrlik adabiy merosimizga ham sog‘lom nazar bilan qarash kayfiyati vujudga kela boshlagan davrda Abdusalom Abduqodirov hali navoiyshunoslikda to‘la o‘rganilmagan Navoiy va tasavvuf mavzusini tadqiq qilishga kirishadi.

Ma‘lumki, Sho‘rolar davrida adabiyot taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan tasavvuf ta‘limotining o‘rganishga qisman e‘tibor qaratilgan bo‘lsa-da, mazkur falsafiy ta‘limotga yangicha munosabat, asosan, mustaqillikning dastlabki yillarida e‘tiboran kun tartibiga qo‘yildi. Jumladan, mutafakkir shoirning tasavvufga doir qarashlari, uning ilmiy hamda badiiy asarlarida mazkur ta‘limotning talqini masalalari alohida monografik rejada o‘rganishga imkoniyat paydo bo‘ldi.

Aslida tasavvuf o‘ta murakkab falsafiy ta‘limot bo‘lib, o‘tmishdagi allomalar tasavvufni paydo bo‘lish tarixi va taraqqiyotini to‘la anglab yetmasdan, uning mohiyatidan mukammal xabardor bo‘lmay turib tasavvufni, shu ruhda bitilgan ilmiy va badiiy ijod namunalarini keng ommamaga targ‘ib qilishdan parhez qilishgan. Har bir davr-u zamonda uning sir-asrorini yetarli darajada anglab yetish oson kechmagan. Ushbu haqiqatni mumtoz o‘zbek shoiri Sayyid Qosimiyning:

Iching toshing bila emas muvofiq,

Tasavvufdan dam urma, ey munofiq,-

deyilgan fikrlari ham buni tasdiqlaydi. Demak, har qanday kishi uchun “*bu maydon ichra turmoqlik oson emas!*”ligi ma‘lum bo‘ladi.

Mustaqillik davrining dastlabki yillaridan boshlab tasavvuf haqida yozish, u haqda fikr yuritish an’anaga aylana boshladi. Mazkur falsafiy ta‘limot haqida yozish go‘yoki musobaqa tusini olgan bir davr edi. Din vakilidan tortib gazeta xodimigacha, ijodkor-u jurnalistlardan maktab muallimigacha tasavvufga doir qarashlarni matbuot sahifalarida yoritib borish an’ana tusini oldi. Ammo istiqlol tufayli yuzaga kelgan yangi milliy mafkura esa tasavvufga doir yangicha mazmun va mohiyatga ega bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarni kutmoqda edi. O‘shanda Abdusalom Abduqodirovning “Navoiy va tasavvuf”, [1] “Navoiy va naqshbandiylik” [2], deb nomlangan yangicha qarashlardagi ilk maqolalari O‘zbekiston Respublikasi FA Alisher Navoiy nomidagi davlat Adabiyot

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

muzeyining “Adabiy meros” jurnalida e’lon qililib, taniqli olimlarning nazariga tushgan edi.

O‘zbekiston ilmiy va adabiy muhitida Najmiddin Komilov, Ibrohim Haqqulov, Sultonmurod Olimov kabi taniqli olimlar ham aynan tasavvuf ta’limoti va uning badiiy adabiyot taraqqiyotidagi o‘rniga doir izlanishlar olib borayotganda Tojikiston Respublikasi Xo‘jand adabiyotshunoslik maktabining vakili Abdusalom Abduqodirov yuqorida nomlari zikr qilingan ustozlar bilan bir vaqtda ishga kirishib, anchagina yutuqlarga erisha olganligini alohida ta’kidlash maqsadga muvofiq.

O’sha yillar A.Abduqodirovning tasavvufga doir ilk kuzatishlari dastlab quyidagi nashrlarda o‘z ifodasini topgan edi. “Navoiy va tasavvuf” (Xo‘jand: “Nuri ma’rifat”, 1994), “Navoiy va naqshbandiylik” (Xo‘jand: “Nuri ma’rifat”, 1994) risolalari, shuningdek, “Tasavvuf istilohlarining qisqacha izohli lug‘ati” 1-2-kitoblari (1997, 2002) ham o’sha davr ilmiy muhitida yangi va yaxshi ishlardan qatorida e’tirof etilishi olimni Navoiy ijodiy merosini tasavvuf nuqtayi nazardan yanada kengroq rejada o‘rganishga rag‘batlantirdi.

A.Abduqodirovning bu davrdagi ilmiy kuzatishlari asosan, tasavvuf ta’limoti va o‘zbek – tojik adabiy aloqalari yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan bo‘lib, Navoiy va mumtoz tojik shoirlari ijodi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, asosan, ularda an’ana va yangilik, mahorat masalalariga e’tibor qaratilganligi bilan muhim ilmiy qimmat kasb etadi. Olimning “Tasavvuf va Alisher Navoiy ijodiyoti (*Vahdat ul-vujud problemasi bo‘yicha*)” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida (Toshkent, 1998) Navoiy ijodida tasavvufning r o‘ni masalasi atroflicha tadqiq etilib, unda Alloh, olam va odamning yagonaligi ifodalangan *vahdat ul-vujud* (borliqning yaxlitligi) ta’limoti ishq, faqr-u fano va komil inson masalalari bilan bog‘lab tadqiq etilgan yangicha mazmunga ega tadqiqotlar qatorida mustaqillik davri navoiyshunosligiga qo‘shilgan salmoqli ishlardan biri sifatida ilmiy qimmatga ega.

Professor Abdusalom Abduqodirov ilmiy kuzatishlarining asosiy qismi Alisher Navoiy hayoti va uning ijodida tasavvuf qarashlarning tadqiqi va talqini bilan bevosita bog‘liqdir. Muallifning “Amir Alisher Navoiy” [Xo‘jand: “Nuri ma’rifat”, 2003; to‘ldirilgan ikkinchi va uchinchi nashrlar – (Toshkent: “Bayoz”, 2013; 2022)], “Tasavvuf va Alisher Navoiy ijodiyoti” [Xo‘jand: Rahim Jalil, 2005], “Amir Alisher Navoiy va tojik mumtoz shoirlari” [Xo‘jand, 2007], “Mavlono Abdurahmon Jomiy va Amir Alisher Navoiy” [Xo‘jand: “Nuri ma’rifat”, 2014], “Tasavvuf, navoiyshunoslik va adabiy ta’lim masalalari” [Xo‘jand: “Nuri ma’rifat” 2019, 296 s.] kabi monografiyalarini sanab o‘tish mumkin. Ayniqsa, so‘ngi uch tadqiqotdan avvalgisida fors-tojik mumtoz shoirlaridan: Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumiy, Amir Xusrav

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Dehlaviy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiy an’analari qiyosiy – tipologik usulda birinchi marta ilmiy tahlil qilingan bo‘lsa, keyingi monografiyada esa Mavlono Abdurahmon Jomiy va Amir Alisher Navoiyning hayoti va ijodi va ularning o‘zaro adabiy hamkorliklari, ayniqsa, Navoiyning ustoz Abdurahmon Jomiy huzirida tasavvuf ta’limotini o‘rganganligi keng rejada yoritilgan bo‘lib, buni mustaqillik davrida o‘zbek va tojik adabiy aloqalari silsilasidagi dolzarb tadqiqotlardan biri sifatida e’tirof etish mumkin.

Ustoz A.Abduqodirovning “Tasavvuf, navoiyshunoslik va adabiy ta’lim masalalari” [Xo‘jand: “Nuri ma’rifat”,2019] mavzusidagi so‘nggi monografiyasida esa mumtoz adabiyotimizdagi tasavvuf ta’limoti uning Amir Alisher Navoiy ijodidagi o‘ziga xos badiiy ifodasi, ayniqsa, mutafakkir shoirning yetuk naqshbandiy shoir ekanligi hamda navoiyshunoslikdagi bugungi kundagi dolzarb masalalar qatorida ularni adabiy ta’lim jarayonida o‘rganish bilan bog‘liq muhim masalalar atroflicha yoritilgan. Jumladan, olimning ushbu xulosalari e’tiborga loyiq: “... Navoiyning boshqa she’r va dostonlarida ham naqshbandiylik g‘oyalari keng targ‘ib etilganini ko‘rish mumkin. Chunki naqshbandiylik tasavvufning eng xalqchil silsilalaridan biri sifatida inson tarbiyasida muhim vazifani bajara olish qudratiga ega edi. Shuni ko‘zda tutgan Navoiy ham “*tasavvuf rizo ahlidin yaxshi axloq*”, ya’ni tasavvuf sabr-qanoatlilar axloqidir...” [3], - degan fikrni bayon etadi. Shuningdek, olimning nuqtayi nazaricha, ulug‘ shoir naqshbandiylikni qabul qilgach, uni mukammal egallab, o‘z asarlarida silsilasi, g‘oyaviy asoslarini targ‘ib etishga kirishar ekan, dastavval uning shu jihatini e’tiborga oladi. Navoiy talqinicha, naqshbandiylik Alloh vasliga yetish yo‘lidir. U ishq orqali amalga oshadi. Zero, haqiqiy ishq insonni poklab, kamolotga yetkazadi... Ulug‘ shoirning o‘zi ham kamolotga ko‘tarilgan va komilligi to‘la tan olingan zoti bobarakat edi. Darvoqe, Xondamirning yozishicha, Navoiy “... bolalik yillaridan va endigina o‘sib-ulg‘aya boshlagan o‘spirinlik chog‘laridan boshlab bu dunyo va undagi narsalarga bo‘lgan e’tiborsizlik *etagini silkidi* [ta’kid bizniki- B.F.] hamda hech qachon o‘tkinchi mol-dunyoga bo‘lgan muhabbat changini va bu dunyoning narsalariga bo‘lgan qiziqish g‘uborini o‘zining himmat etagiga qo‘ndirmadi” [4],- degan g‘oyatda ibratli, har bir davrda inson tarbiyasi uchun xizmat qiladigan muhim ibratga arzirli fikrni yozib qoldirgan edi.

Professor Abdusalom Abduqodirovning kuzatishlarida Navoiyning tom ma’nodagi yetuk naqshbadiiy ekanligini ko‘rsatadigan eng ishonchli tarixiy manbalardan biri tarixchi Xondamirning xotiralarida quyidagi yana bir g‘oyatda ibratli fikriga maxsus e’tbor qaratgan edi: “Har qachon podshohi Sohibqirondan [Ya’ni Husayn Boyqaro – B.F.] o‘z holiga birin-ketin inoyat va marhamat ko‘rgan sari, *xilvat joyga borar*,

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

[ta'kid bizniki, B.F.] boshini yalang'ochlab, bir miqdor tuproqni bosh ustiga sochar va aziz nafsiga undab aytardiki: dunyo martaba va hashamatlarining e'tibori yo'q, zinhor bu martabalarning qo'lga kirishini xudbinlik va takaburga sababchi qilma; o'zingni tuproqqa teng tutib, mumkin qadar fuqaro va miskinlar ishini hal qilishga urin..." [5].

Amir Alisher Navoiy hazratlarining siyratidagi bunday olijanob: sabr, qanoat, nafsni tiyish va xoksorlik kabi fazilatlar naqshbandiylik tariqati rahnamolari Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni, Xoja Bahouddin Naqshband va Mavlono Abdurahmon Jomiy kabi ulug' zotlar yo'li bo'lib, Navoiy ham uni mukammal egallaganligi professor A.Abduqodirovning kuzatishlarida aniq misollar asosida o'z isbotini topganligi bilan ham muhim ilmiy hamda tarbiyaviy qimmatga ega.

Professor A.Abduqodirovning ilmiy kuzatishlari Alisher Navoiy asarlaridagi tasavvufiy masalalar tojik mumtoz adabiyoti vakillarining asarlari bilan qiyosiy nuqta nazardan tadqiq etilganligi bilan tasavvuf hamda adabiy aloqalarga doir mavjud ishlardan alohida ajralib turadi.

Ayniqsa, bu borada olimning “Jomiy va Navoiy “Layli va Majnun”larining qiyosiy tahlili”ga doir kuzatishi e'tiborga loyiq [6]. Darhaqiqat, Sharq dostonchiligida eng ko'p qalamga olingan mavzu – Layli va Majnunning fojiali muhabbati tasviridir. Bu mavzuda turli tillarda yuzdan ortiq asar yozilgani aniqlangan [7]. Shuningdek, mazkur mavzuda, xususan, Navoiyning dostoni bo'yicha ham o'zbek adabiyotshunosligida alohida tadqiqot ishlari bilan birga qator ilmiy maqolalar yaratilganligini kuzatish mumkin. Navoiyning dostoni uning murshidi va ustози Abdurahmon Jomiyning “Layli va Majnun” dostoni bilan bir muddatda, ya'ni 1484 yilda yozilgan bo'lib, mavzu jihatdan bir xil bo'lgan bu ikki doston ham original ijod namunalari ekanligi ta'kidlanib, ammo haligacha bu dostonlar bir-biriga qiyoslanmaganiga e'tibor qaratgan A.Abduqodirov ikki dostonni boshdan - oxir qiyoslab, yangi ilmiy xulosalarini bayon qiladi. Ularning bir-biriga o'xshash hamda mushtarak jihatlari bilan birga farqli tomonlariga ham ega ekanligini ko'rsatib, bergan yangi xulosalari mustaqillik davri navoiyshunosligiga qo'shilgan muhim ishlar sirasiga kiradi. Shunday xulosalardan biriga nazar tashlaylik: “Navoiy dostonida Majnun ota-onasi vafot etganligini bilgach, qabristonga keladi. Ularni tavof qiladi, shu yerda yashaydi. Shu yerda uning qulog'iga Layli vafoti haqidagi hotif xabari yetadi. U Layli uyiga keladi. Uni jonsiz ko'rib, o'zi ham jonini topshiradi. Jomiy dostonida esa avval Majnun vafot etadi. Uning vafotini ota-onasiga yetkazgan arab Layliga ham xabar beradi. Layli bu mash'um hodisani oldindan sezganini aytadi. So'ng kasal bo'lib qoladi. Vafot etsa, Majnun oyoqlari ostiga ko'mishlarini vasiyat qiladi. Vafotidan so'ng uning vasiyati bajariladi. Navoiy dostonida esa Layli va Majnun bir kafanga va

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

bir go‘rga qo‘yiladi. Navoiy buni tasavvufiy talqin qilib, ularning birga kafanlanishini ikki ruhning qo‘shiluvchi tarzida beradi. Ulug‘ shoir buni hatto maxsus ta’kidlaydi:

*Bir dona edi, vale ikki juzv,
Bir-biriga uyla mutassil uzv.
Kim, shiddati vahdati visoli,
Bermay anga ikkilik majoli.
Donadek o‘lub ikki badan bir,
Dona qobug‘i kibi kafan bir[8].*

Shu sababli:

*Kirdi ikki jism bir kafanga,
Yo‘q, yo‘q, iki ruh bir badanga[9].*

Shu fikrlarning o‘zi ham Navoiy dostonidagi ishq so‘fiyona talqin etilganini ko‘rsatadi. Navoiy masalani yanada chuqurroq talqin qilish uchun dostonida ishqning alohida badiiy tahlilini beradi. Ishqning maxsus badiiy tahlili esa Jomiy dostonida berilmagan...”. Masalaning muhim tomoni shundaki, professor A.Abduqodirov o‘rinli ta’kidlaganidek, ishq haqidagi ikkala doston ham original ijod namunalari hisoblanadi. Bularni navoiyshunos olim qiyoslar asosida ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga, ularni ishq bobida bir biridan farq qiluvchi nuqtalari ham mavjud ekanligini zukkolik bilan aniqlaydi. Buni : “Jomiy oldida haqiqiy ishq tasvirini berish turmaganga o‘xshaydi. Jomiy ko‘proq Qaysni real hayotga yaqinroq tasvirlaydi. Navoiy qahramoni esa ancha murakkab. U haqiqiy ishq vakili. U xos oshiq. Uning butun faoliyati majozdan haqiqatga aylangan ishq jarayonini ko‘rsatishga yo‘naltirilgan... Shuning uchun ham u faqat bir qizga ko‘ngil qo‘yadi va qiz uning uchun Haq timsoliga aylanadi”[10], -degan fikrlari alohida ilmiy qimmatga egadir. Bunday xarakterli hamda asosli dalillarni ustoz Abdusalom Abduqodirovning Navoiy “Xamsa” sidagi boshqa dostonlariga doir turkum maqolalarida ham ko‘rish mumkin.

Shuningdek, Navoiyning 1495-yilda yozilgan tasavvufga doir eng yirik - “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyin ul-futuvvat”(“Ulug‘lik xushbo‘yliklarini taratuvchi sevgi shabbodalari”) nomli asari haqida ham professor A.Abduqodirovning alohida ilmiy kuzatishlari bo‘lib, unda mazkur asarning muqaddimasida tasavvufga doir berilgan nazariy ma’lumotlar ham olimona nuktadonlik bilan birma - bir izohlanganki, bular tasavvufga doir sof nazariy tushunchalarni chuqurroq tushunish bilan birga, shunday mazmunda yaratilgan ijod namunalarini to‘g‘ri anglashga yordam berishi, shubhasiz [11].

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Aslida Navoiyning yuqoridagi tasavvufiy asarining yaratilishi ulug‘ tojik shoiri va mutafakkiri Nuriddin Abdurahmon Jomiy (1414-1492) tomonidan yaratilgan “Nafohat ul-uns min hazorat ul-quds” (“Pok zotlar huzuridan esgan do‘stlikning xush islari”) qomusiy asari[12] bilan bog‘liq bo‘lib, ya’ni Navoiy ustoz asarini o‘zbek o‘quvchilariga mo‘ljallab, uni o‘zbek tiliga erkin tarjima qiladi. Navoiy tarjimasida ayrim yangilik va qo‘shimchalarga ega, albatta. Jomiy asarining muqaddimasi tasavvufga doir qator nazariy masalalar yoritilgan bo‘lib, ularda tasavvufdagi asosiy masalalar bo‘yicha ma’lumotlarga e’tibor qaratilgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ustoz A.Abduqodirovning qayd etishicha, Navoiyning mazkur tasavvufiy asari muqaddimasi Jomiy asari muqaddimasidan nisbatan qisqa bo‘lsa-da, unda ham tasavvufga doir asosiy masalalar o‘z aksini topgan. Darhaqiqat, Navoiy asari muqaddimasida tasavvuf ahlining yashash tarzi; shariat bosqichining tasavvufiy mohiyati va talablari, tasavvuf tariqatining maqomlari va avliyolik darajasiga yetgan so‘fiylar faoliyati haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga, Navoiy asari muqaddimasida ham tasavvufning ko‘pgina nazariy masalalariga e’tibor qaratilib, ularning har biri sharhlangani, xususan, tavba va uning ikki turi (*shariat tavbasi va tariqat tavbasi*) haqida va tasavvuf ahliga xos bo‘lgan luqmayi hilliyati, shuningdek, shariat rukunlari haqida va tariqat adablari kabi muhim masalalarga e’tibor qaratilganini ta’kidlab, Navoiy bularning hamma-sini naqshbandiylik silsilasi nuqtayi nazardan izohlagani tadqiqotchining talqinida misollar bilan ko‘rsatib berilgan.

Professor A.Abduqodirov yuqorida nomlari zikr etilgan ustoz va shogirdning asarlari muqaddimasini qiyoslab, shunday xulosaga keladi: “Jomiy “Nafohat ul-uns” muqaddimasida tasavvuf nazariyotchisi sifatida fikr yuritadi. Agar Navoiy Jomiy muqaddimasini aynan tarjima qilganda, u o‘sha paytdagi o‘zbek o‘quvchilari uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin edi. Chunki Navoiy davrigacha o‘zbek tilida tasavvuf nazariyasiga doir asarlar yaratilmagan va faqat o‘zbek tilida gapiradigan omma sof nazariy masalalarni tushunishga tayyor emas edi. Tojik tilida esa Jomiy davrigacha ham tasavvuf nazariyasiga doir anchagina asarlar yaratilgan bo‘lib, keng omma Jomiy fikrlarini tushunishga tayyor edi. Shunga qaramay, Jomiy ham o‘z muqaddimasida ko‘proq tasavvufiy istilohlarni tushun-tirishga diqqat qiladi...” degan o‘rinli fikrni bayon qiladi [13]

Ma’lumki, Navoiy yaratgan dostonlari oltita bo‘lib, ularning har biri salaf hamda xalaf shoirlar dostonlariga tatabbu tarzda yaratilganini mutafakkir shoirning o‘zi “Muhokamat ul- lug‘atayn” asarida maxsus ta’kidlab o‘tadi [14]. Jumladan , “Xamsa”dagi birinchi “Harat ul abror” masnaviysi ulug‘ ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul –asror”iga tatabbu sifatida yaratilgan bo‘lib, u ham

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

mazmunan, ham shaklan yangi asar bo‘lib, professor A. Abduqodirovning nuqtayi nazaricha, ikki masnaviy asarlar hanuzgacha bir-biriga maxsus tarzda qiyoslanmaganligini tilga olib o‘tadi [15]. So‘ng bu asarlarni ham qiyoslashga kirishib, muhim ilmiy xulosalarni bayon qiladi. Olimning fikricha, Navoiyning masnaviysi faqatgina falsafiy-ta’limiy masnaviy bo‘lib qolmasdan unda tasavvufga doir muhim masalalar va tasavvufiy timsollar yetakchi o‘ringa ega. Chunonchi, “Harat ul abror”ning 18-19-20-boblardagi hayratlarida berilgan ko‘ngil sayri boshdan-oxir so‘fiyona ekanligi asar matni asosida ko‘rsatib berilgan. Darhaqiqat, 21-bobdagi tasavvufning naqshbandiy suluki asoschisi Xoja Bahouddin madhi, 23-bobdagi mashhur so‘fiy Boyazidga murid savoli va unga javobi, 25-bobdagi Ibrohim Adhamning Ka‘baga namoz bilan borgani va Ka‘baning Robiya Adaviyaga niyoz bilan kelgani, 29-bobdagi buyuk so‘fiy Xoja Abdulloh Ansoriy so‘zi, 39-bobdagi ulug‘ so‘fiy Shayx Iroqiy ishqiy tasviri. 53-bobidagi mashhur so‘fiy Abdulloh Muborak jihodi va nihoyat, 61-bobda ulug‘ naqshbandiy murshid Xoja Muhammad Porsodan duo so‘rash haqidagi hikoyatlarning berilgani birma-bir ko‘rsatilib, Nizomiy asarida bunday ulug‘ so‘fiylar timsol ham, tasavvuf ahli bilan bog‘liq so‘fiyona tasvirlar mavjud emasligi dalillar asosida ko‘rsatib berilgan. Bu xulosalar Navoiy va tasavvuf mavzusiga doir muhim ma’lumotlarni yanada to‘ldirishga xizmat qiladi, albatta.

Bulardan tashqari, Abdusalom Abduqodirov “Jomiy va Navoiy ijodida tavhid muammosi” [16] deb nomlangan maqolasida ham Navoiy ijodida tasavvufga doir muhim va asosiy masalardan biri - tavhid muammosini kengroq yoritishni o‘ziga maqsad qilib oladi. Mazkur masalani tushuntirishda ham Abdurahmon Jomiy ijodiga murojaat qiladi va uning bu masalaga doir qarashlari bilan qiyoslab, tahlil qiladi va yangi ilmiy xulosalarini taqdim qiladiki, bu ham tadqiqotchi kuzatishlaridagi asosiy nuqtalardan yana biri deyishga imkon beradi.

Darhaqiqat, Abdurahmon Jomiy o‘zining “Nafohat ul-uns” asarida tavhid muammosiga alohida e’tibor qaratgan edi. Alisher Navoiy ustoz va murshidi Jomiyning bu boradagi fikrlarini rivojlantirib, tavhidni Allohga intilish yo‘lidagi riyozat vodiylaridan biri sifatida ko‘rsatib berganini A. Abduqodirov ta’kidlab, tavhidga doir quyidagi: “...tavhid istilohi birlikni bildiradi. U Allohning birligi bo‘lib, uni bitta deb tushunish va shu birlikka intilishdan iborat”, degan fikrni bayon qiladi [17]. Navoiyshunos A. Abduqodirov Amir Alisher Navoiyning tavhidga doir qarashlarini yoritish jarayonida mutafakkir shoirning “Farhod va Shirin” dostoniga tayanib, muamoani izchil tarzda tushuntirib, so‘ng tavhid bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tajrid hamda tafridga doir ma’lumotlarni ham taqdim qiladiki, bu

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

tasavvufdagi xiyla murakkab masalalarni anglashda “kalit” vazifasini bajarishi, shubhasiz.

Chunonchi, tajrid – nafsni to‘la mag‘lub etish va dunyoga muhabbatdan qutilib, faqat Allohga bog‘lanish ekanligi ta‘kidlanib, so‘ng tafrid tushunchasiga e‘tibor qaratib, uni esa dunyoga berilganlardan uzoqlashib, vujud inkoriga yetgan holda Allohga qo‘shilish ekanligi ta‘kidlaydi. Hamda vahdatga yetishda tafrid va tajridga erishish g‘oyatda muhim ekanligini uqtirgan tasavvufshunos A.Abduqodirov Navoiy ijodiy merosini tasavvuf mezonlariga bo‘yicha tadqiq etishda quyidagi muhim ilmiy xulosani ham bayon qiladi: “Shunday qilib, Alisher Navoiy tavhid asosida o‘zlikdan butunlay voz kechishni ko‘rsatib beradi. Xo‘sh, o‘zlikdan kechish nimani bildiradi? Ulug‘ shoir talqinicha, o‘zlikdan kechish, eng avvalo, o‘zini tuproq bilan teng qilishdir. Buning ma‘nosi shuki, inson o‘zini hamma narsada hammadan past tutishi, lekin xoksorlikda barchadan yuksak bo‘lishi lozimdir. Demak, inson tuproqqa aylangan sari yuksaklikka ko‘tariladi. ...aslida tavhidga ko‘tarilish asosida, mukammal poklanish masalasi turadi. Unga erishganlar Komil insonga aylanadi...”[18]. Bunday xulosalar tasavvuf ta‘limotini to‘g‘ri tushunishga, uning mazmun-mohiyatini teranroq anglashga yordam beradigan ma‘lumotlar sirasiga kiradi.

Umuman olganda, professor A.Abduqodirov o‘zbek va tojik adabiyotining har bir davri bo‘yicha teran mushohada yurita oladigan sinchkov va nuqtadon olim edi. Jumladan, uning Alisher Navoiy ijodi bo‘yicha xorijiy mamlakatlarida amalga oshirilayotgan ishlarga ham o‘z munosabatini bildira olish salohiyatiga egaligi diqqatga sazavor muhim nuqtalardan biri deyish mumkin. Jumladan, keyingi paytda taniqli eron adabiyotshunosi Zebehullo Safoning saylanma asarlari Tojikiston Respublikasining poytaxti - Dushanbe shahrida yangi nashr qilindi. U o‘zining “Ta‘rixii adabiyoti Eron” (“Eron adabiyoti tarixi”) kitobida Navoiy “Xamsa”si va undagi dostonlarni Nizomiy “Xamsa”sidagi dostonlarga taqlid sifatida yaratilgan degan fikrni ochiqdan-ochiq bayon qilgan[19].

A.Abduqodirov Z.Safoning bunday xulosalari mutlaqo asossiz va noto‘g‘ri ekanligini ilmiy jihatdan isbotlab, bu ikki ulug‘ mutafakkir shoirlar asarlarini matnlari asosida birma-bir qiyosiy yo‘sinida kuzatib, quyidagi asosli ilmiy xulosalarini bildirgan edi: “Albatta, bu fikrlar [Ya‘ni Z.Safoning fikrlari – B.F.] ilmiy asosga ega emas. Chunki, birinchidan, Z.Safo Nizomiy va Navoiy “Xamsa”sidagi dostonlar haqida yetarlicha ma‘lumotga ega emasligi seziladi. Buni shundan bilish mumkinki, u hatto Navoiy dostonlarining nomlarini to‘g‘ri keltirmaydi. Voqean, “Hayrat ul-

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

abror”ni u “Hayot ul-abror”, “Layli va Majnun”ni “Majnun va Layli” tarzida yozadi... [20].

Shuningdek, Z.Safo Abdurahmon Jomiy, Davlatshoh Samarqandiy, Xondamir va boshqalarning Navoiyning “Xamsa”siga doir o‘z davridayoq bildirilgan qimmatli ma’lumotlaridan mutlaqo xabarsiz ekani ta’kidlanib, har ikki shoirning asarlarini badiiy matnga tayangan holda qiyoslab, Navoiyni original shoir ekanligini aniq dalillar asosida isbotlab beradiki, har jihatdan ilmiy asosga ega bunday ishonchli xulosalar Alisher Navoiy merosini jahon miqyosida yanada mukammal darajada o‘rganishga va yanada teranroq anglashga yordam berishi, shubhasiz.

Istiqloldan keyin professor A.Abduqodirovning tojik va o‘zbek adabiy aloqalari hamda tasavvufga doir yuzaga kelgan muhim ishlaridan yana biri - tarjima va tabdil borasidagi samarali faoliyatini alohida ta’kidlashni istardik. Jumladan, olimning “*Tojik pandnomalari*” ruknida tojik adabiyotidan islomiy hamda tasavvufiy mazmundagi bir qator namunalarni o‘zbek tiliga tarjima qilib, ularning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi tabdil variantlari bilan nashr etilishi adabiy aloqalarni hamda tasavvufni yanada mukammalroq anglash yo‘lidagi muhim ishlardan biri bo‘ldi deyish mumkin [21]. Ta’kidlash lozimki, yuqorida tilga olingan tarjima va tabdillarda asosan tasavvufiy ruhdagi asarlar, ularning bugungi kundagi ahamiyati, ayniqsa, yoshlar tarbiyasidagi o‘rni borasida muhim hamda umumbashariy xulosalar bayon etilganligi bilan alohida qimmatga ega.

Tojik allomalaridan Abumansur Moturidiy Samarqandiyning “*Pandnoma*”si, Xoja Abdulloh Ansoriyning “*Nizomnoma*”si va “*Taboqat ul – so‘fiya*” (So‘fiylik tabaqalari) tazkira hamda manoqiblari, “*Yuz maydon*” nomli diniy-tasavvufiy pandnomasi, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyning “*Vasiyatnoma*”si, Husayn Voiz Koshifiyning “*Axloqi muhsiniy*” pandnomasi, Abdurahmon Jomiyning “*Xiradnomayi Iskandariy*” dostonidan tanlab va saralab olingan pand-u o‘g‘itlari, shuningdek, Ubayd Zakoniyning “*Sad pand*” (“Yuz pand”), Shujo Sheroziyning “*Anis un-nos*” (“Insonning do‘sti”), Sirojiddin Sidqiyning “*Javohir ul-pand*” (“Qimmatbaho pandlar”) kabi pandnomalardan tanlab olingan parchalar o‘zbek tiliga birinchi marta erkin usulda tarjima hamda tabdil qilinib, nashr etilganligi mustaqillik davridagi e’tiborga loyiq ishlardan biridir[22].

Professor A.Abduqodirovning tarjima hamda hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi tabdillari sodda, uslubiy jihatdan ravon shaklda o‘zbek tiliga o‘g‘irilgan bo‘lib, har qanday kitobxon uchun tushunarli bo‘lib, mushkullik tug‘dirmaydi. Eng asosiysi, tarjimalarda Sharq allomalarning pand-u o‘g‘itlari davr va zamon talablariga to‘la javob bera oladigan chuqur tarbiyaviy mazmunga ega bo‘lgan badiiy jihadan yetuk

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

namunalar ekanligi bilan ahamiyatlidir. Ulardagi har bir fikrlar bugungi globallashuv davrida keng kitobxonlarga, ayniqsa, yoshlarning tarbiyasi uchun beminnat xizmat qiladigan muhim adabiy manbalar sifatida ko‘p yillar davomida o‘z qimmatini yo‘qotmay, millatimiz ma’naviyati uchun xizmat qiladigan tasavvufiy ruhdagi bebaho pandnomalar ekanligi bilan birga bugungi yosh avlodga tasavvufning asl mohiyatini yanada teranroq anglashlariga beminnat xizmat qilishga qodir zarur manbalar hisoblanadi. Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarimizni bildirmoqchimiz:

1. Navoiyning tasavvufga doir ilmiy-nazriy qarashlari, turli janrlarda yaratilgan asrlaridagi tasavvuf ta’limotiga bevosita aloqador bo‘lgan ma’lumotlar hamda talqinlar bo‘yicha yana ko‘plab kuzatishlar bilan birga monografik xarakterdagi tadqiqotlarning yaratilishi navoiyshunoslik ilmidagi kemptikliklarni to‘ldirib, uning mazmun-mundarijasini yanada boyitib, zamonaviy navoiyshunoslik istiqboli uchun keng yo‘l ochishiga ishonchimiz komil.

2. Biz yuqorida bayon etgan qisqacha fikr va mulohazalarimiz orqali professor Abdusalom Abduqodirovning Navoiy va tasavvufga doir amalga oshirgan turkum maqolalari hamda monografik ishlarida yoritilgan ayrim nuqtalargagina e’tibor qaratishga harakat qildik. Yana shu narsani ta’kidlash o‘rinliki, navoiyshunos olimning mazkur mavzu doirasida amalga oshirilgan alohida monografik tadqiqotlarini keng rejada tadqiq etish galdagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

3. Keyingi yillarda O‘zbekistonda navoiyshunoslik bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirilayotganini maxsus ta’kidlash joiz. Jumladan, mustaqillik yillarida navoiyshunoslik borasidagi yangicha talqin va tahlillardan iborat tadqiqot ishlarini o‘z sahifalarida mujassam etgan 50 jilddan iborat yangi va toza nashrning bugungi kunda 30 jildi dunyo yuzini ko‘rishida Alisher Navoiy xalqaro jamoat fondida faoliyat olib borayotgan salohiyatli jamoaning amalga oshirgan, havas qilsa arzigulik muhim ishlaridan biri ekanligini adolat bilan e’tirof etish darkor. Fursatdan foydalanib, professor A.Abduqodirovning istiqloq yillarida Amir Alisher Navoiy va tasavvuf mavzusi bo‘yicha amalga oshirgan turkum ishlari hamda monografik maqomidagi kamtarona tadqiqotlarini yuqorida ta’kidlangan ko‘pjildlikka kiritilishini taklif qilgan bo‘lar edik.

4. Xullas, istiqloldan so‘ng o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega bo‘lgan o‘zbek va tojik adabiy aloqalari bo‘yicha ham yangi bosqichga dadil qadamlar qo‘yildi. Ayniqsa, tasavvuf ta’limoti va tasavvuf adabiyoti masalalarini xalqqa to‘g‘ri, o‘z holicha tushuntirib berish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bunday mazmundagi ham ilmiy va ham amaliy ko‘rinishga ega bo‘lgan ishlar qatorida professor Abdusalom Abduqodirovning

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ham kamtarona kuzatishlari, ayniqsa, monografik mazmundagi tadqiqotlari ko‘p yillar o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan, millatimiz ma’naviyatini yuksalitishga, o‘z va o‘zlikni anglash yo‘lida beminnat xizmat qilishga munosib va muhim ishlardan biri ekanligiga ishonchimiz komil.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xondamir. Makorim ul-axloq. -Qayta ishlangan va to‘ldirilgan uchinchi nashri. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1967, 205-bet.
2. Navoiy A. Xazoyin ul- maoniy, Birinchi devon. – Toshkent: “Tamaddun”, 2011, 16-bet.
3. Izzat Sulton. Bahovuddin Naqshband abadiyati (naqshbandiya tariqatining zamonaviy ahamiyati haqida jajji tadqiqot) – Toshkent: “Fan”, 1994.
4. Komilov N. Tasavvuf. - Toshkent: Movarounnahr- O‘zbekiston, 2009.
5. Haqqulov I. Tasavvuf va she’riyat. – Toshkent: G‘afu r G‘ulom nomidagi nashriyot - matbaa birlashmasi, 1991.
6. Haqqulov I. Tasavvuf va Navoiy she’riyati munosabatiga doir// Navoiyga qaytish. – Toshkent: “Fan”, 2007,28-39-betlar.
7. Haqqulov I. O‘zbek tasavvuf she’riyatining o‘rganilishi xususida // Navoiyga qaytish. – Toshkent: “Tafakkur”, 2021, 141-157-betlar.
8. Haqqulov I. Ruh va ma’no sarboni // Abdurahmon Jomiy Gulshaningda so‘lmasin gul. Saylanma. – Toshkent: “ Fan”, 2008, 3-19 betlar.
9. Olimov S. Naqshband va Navoiy. – Toshkent: “O‘qituvchi“, 1996.
10. Abduqodirov A. “Sab’ ai sayyor”: adabiy an’ana va yangiliklar // O‘zbek tili va adabiyoti, 2017, 2- son, 19-20-betlar.
11. Abduqodirov A. “Hayrat ul – abror”: adabiy an’ana va badiiy mahorat // O‘zbek tili va adabiyoti, 2016, 1-son, 12-13-betlar.
12. Abduqodirov A. Tasavvuf va Alisher Navoiy ijodiyoti (vahdat ul-vujud muammosi). Monografiya. – Xo‘jand: Rahim Qalil, 2005. – 98 bet.
13. Safo Z. Ta’rix adabiyoti Eron. Qildi 3. – Dushanbe: Sino, 2011, -S. 171
14. Abduqodirov A. Tasavvuf, navoiyshunoslik va adabiy ta’lim masalalari. Monografiya. – Xo‘jand: “ Nuri ma’rifat”, 2019, 296 – bet.
15. Abduqodirov A. Amir Alisher Navoiy (Hayoti va ijodi) Risola. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan to‘rtinchi nashri. -Toshkent:“BAYOZ”,2022, 228-bet.
16. Abduqodirov A. Navoiy va tasavvuf. - Xo‘jand: “Nuri ma’rifat”, 1994, 102-b.
17. Abduqodirov A. Navoiy va naqshbandiylik. -- Xo‘jand: “Nuri ma’rifat”, 1994.120-b.
18. Abduqodirov A. Mavlono Abdurahmon Jomiy va Amir Alisher Navoiy. Monografiya.– Xo‘jand: “ Nuri ma’rifat ”, 2014. – 208 bet.